

“BO’LARKANU TOSHKENTGA BORMAY, TERMIZDA HAM DAVOLANSA...”



“BO’LARKANU TOSHKENTGA BORMAY, TERMIZDA HAM DAVOLANSA...”

Surxondaryoda o‘tkazilayotgan sog‘lomlashtirish aksiyasi sababli bemor davolanish uchun uzoq yo‘l bosib, Toshkentga borishiga hojat qolmadi. Aksincha, shifokorlarning o‘zi Termiz shahriga, bemorlar huzuriga keldi.

Bugun davlatimiz tomonidan ana shunday yurtdoshlarimizga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, salomatligini tiklash uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Prezidentimizning tibbiyot xodimlari bilan bo‘lgan ochiq muloqotida belgilab berilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida Sog‘liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan Surxondaryo viloyatida boshlangan sog‘lomlashtirish aksiyasi ayni shu maqsadlarni ko‘zda tutadi.

Aktsiya doirasida shu kunlarda viloyatdagi qator tibbiyot muassasalarida poytaxtdan kelgan malakali shifokorlar boshchiligida ko'plab yuqori texnologiyali murakkab jarrohlik amaliyotlari bajarilmoqda.

Sog'liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmati o'tkazilgan ana shunday operatsiyalar tufayli yana sog'lom hayotga qaytgan bir necha bemorlar bilan suhbatlashdi.

“Poytaxtga bormasang, tuzalmaysan deyishgandi...”

Termiz shahar Saxovat mahallasida yashaydigan 64 yoshli Ro'zihol Xojievaning ko'krak qafasida bundan to'rt oy avval to'satdan kuchli og'riq paydo bo'ldi. Shundan keyin bir necha tibbiyot muassasasida davo muolajalarini oldi. Biroq kutilgan natija bo'lmadi. Bu orada esa bemor xastalik tufayli 30 kilogrammga yaqin vazn yo'qotdi.

Viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazida o'tkazilgan so'nggi tekshiruvlardan so'ng unda og'ir kasallik — diafragma churrasi aniqlandi. Dastlab konservativ yo'l bilan davo usullari olib borildi. Ammo oxir-oqibatda shifokorlar onaxonni operatsiya qilish lozim, degan xulosaga kelishdi.

Eng asosiysi, Surxondaryoda o'tkazilayotgan sog'lomlashtirish aktsiyasi sababli bemor davolanish uchun uzoq yo'l bosib, Toshkentga borishiga hojat qolmadi. Aksincha, shifokorlarning o'zi Termiz shahriga, bemorlar huzuriga keldi.

Yana bir quvonarli jihati, vohada bunday murakkab jarrohlik amaliyoti ilk bor o'tkazildi.

— Ko'pchilik tanishlarim “Poytaxtga bormasang, tuzalmaysan”, deyishgandi, biroq ko'rib turganingizdek, og'ir xastalikdan shu yerning o'zida xalos bo'ldim, — dedi Ro'zihol opa. — Bo'larkan-ku, Toshkentga bormay, Termizda ham davolansa. Buning uchun shifokorlarimizga, sog'lomlashtirish aktsiyasining o'tkazilishiga sababchi bo'lgan barcha insonlarga o'z minnatdorligimni bildiraman.

“90 yoshimda Yaratgan menga yangi hayot berdi”

Boysunlik 90 yoshli Norxol momo boshiga tushgan barcha sinovlarni sabr bilan yengib o'tdi. Biroq bir necha yil avval og'ir dardga taslim bo'ldi. Kasallik keksa bemorni to'shakka mixladi.

Avvaliga Norxol momo boshqa xastalik bo'lsa kerak, deb turli muolajalar olib yurdi. Ammo foydasi bo'lmadi. Aksincha, dardi yanada zo'raydi.

Yaqinda o'tkazilgan tibbiy tekshiruvlardan so'ng unda koksartroz kasalligi aniqlandi. Shifokorlar bemorda murakkab operatsiya o'tkazish lozimligi, bu amaliyot esa juda qimmat ekanligini aytganida yaqinlarning ilojisizlikdan boshi qotdi. Surxondaryo viloyatida boshlangan salomatlik aktsiyasi esa ularning qalbiga yana yorug'lik olib kirdi.

— Afsuski, bu kasallikni deb uzoq yil azob chekdim, — dedi Norxol momo G'afforova.
— O'rnimdan turolmay, harakatlanishga qiynalib yashayotgan kunlarimning birida poytaxtdan viloyatimizga malakali jarrohlarni kelgani, ular meni shu yerning o'zida bepul operatsiya qilishini aytganida ishongim kelmadi. Biroq hammasi rost ekan. Og'ir kunimda davlatimiz menga suyanch va dalda bo'ldi. Hozir ahvolim yaxshi. To'qson yoshimda Yaratgan menga yana hayot berganidan xursandman.

“O'z oyog'im bilan farzandlarim oldiga yurib borsam deyman...”

45 yoshli O'rol Abdurahmonov — Bandixon tumani Obod turmush mahallasidan. 3 nafar farzandi bor. Bundan bir necha oy avval qishloqda bo'lgan uloq chopish musobaqasi unga ancha qimmatga tushdi. O'sha kuni u o'ng oyog'idan jiddiy jarohat olib, butunlay yurolmay qoldi.

Oxirgi marta o'tkazilgan tibbiy tekshiruvlardan so'ng uni qiynayotgan dard suyak yemirilishi kasalligi ekani, davolanish uchun endoprotezlash amaliyoti zarurligi, bu operatsiya esa juda qimmat bo'lib, faqat Toshkentda qilinishi ma'lum bo'ldi.

— Ochig'i, o'sha payt qattiq tushkunlikka tushib qoldim, — dedi O'. Abdurahmonov. — Hatto, endi yura olmasam kerak, deb o'yladim. Chunki moddiy ahvolim o'zimga ayon. Poytaxtga borish qayoqda deysiz, hatto mahalliy shifoxonalarda davolanishga ham qurbim yetmasdi. Bunday noyob operatsiya uchun katta mablag' to'lashni-ku gapirmay qo'yaqoling.

Shukr, hammasi ortda qoldi. Hozir ahvolim yaxshi. Shifokorlarning aytishicha, tez kunda yana yura olar ekanman...

Surxondaryoda bo'lib o'tayotgan sog'lomlashtirish aksiyasi davomida dardiga darmon topayotgan bunday bemorlar safi keng.

Ma'lumot o'rnida aytish lozimki, tadbir doirasida hozirgacha viloyatda 100 nafarga yaqin og'ir bemorda davlat hisobidan murakkab operatsiyalar o'tkazildi.

Sog'liqni saqlash vazirligi

Matbuot xizmati.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

